



16. OECD. *The Future of Education and Skills 2030: Learning Compass*. — Paris: OECD Publishing, 2020. — 92 p.
17. Oblinger D.G., Oblinger J.L. *Educating the Net Generation*. — Washington D.C.: EDUCAUSE, 2021. — 250 p.

NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVDA GENDER TAFOVUTLAR

Toshturdiyeva Aziza Akbar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika yo’nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi

ChDPU Pedagogika kafedrasi o’qituvchisi

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0006-4669-0483>

jamoldinova.cspu@gmail.com, +998917766446

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim jarayonida gender tafovutlarini neyropedagogik yondashuv asosida tahlil qilish masalalari yoritilgan. Neyropedagogika fanining asosiy maqsadi — o’quvchilarning miyaviy faoliyati, idrok, e’tibor va motivatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda ta’lim samaradorligini oshirishdir. Maqolada erkak va ayol o’quvchilarning o’qishdagi individual farqlarini ijtimoiy-psixologik hamda neyropedagogik nuqtai nazardan o’rganish, stereotiplardan xoli yondashuvning ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim tizimida teng imkoniyatlar yaratish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: neyropedagogika, gender tafovutlar, ta’lim, o’quv jarayoni, miya, motivatsiya, tenglik.

GENDER DIFFERENCES IN NEUROPEDAGOGICAL APPROACH

Toshturdiyeva Aziza Akbar qizi

3rd year student of the pedagogical department of Chirchik State Pedagogical University

Scientific supervisor: Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi

Chirchik State Pedagogical University

Teacher of the Department of Pedagogy

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0006-4669-0483>

jamoldinova.cspu@gmail.com, +998917766446

Annotation: This article explores gender differences in education through the lens of a neuro-pedagogical approach. The main goal of neuro-pedagogy is to enhance the effectiveness of education by taking into account students’ brain activity, perception, attention, and motivation. The article examines male and female learners’ individual differences from social-psychological and neuro-pedagogical perspectives, emphasizing the importance of avoiding stereotypes and promoting equal opportunities in modern education systems.

Keywords: neuro-pedagogy, gender differences, education, learning process, brain, motivation, equality.

ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПОДХОДЕ

Toshturdiyeva Aziza Akbar qizi

студентка 3-го курса педагогического факультета Чирчикского государственного педагогического университета

Научный руководитель: Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi

Преподаватель кафедры педагогики ЧДПУ

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0006-4669-0483>

jamoldinova.cspu@gmail.com, +998917766446

Аннотация: В данной статье рассматриваются гендерные различия в образовании с точки зрения нейропедагогического подхода. Основная цель нейропедагогики — повышение эффективности обучения с учётом мозговой активности, восприятия, внимания и мотивации



учащихся. В работе анализируются индивидуальные различия между учениками мужского и женского пола с социально-психологической и нейропедагогической точек зрения, подчёркивается важность отказа от стереотипов и необходимости обеспечения равных возможностей в современной системе образования.

Ключевые слова: нейропедагогика, гендерные различия, образование, учебный процесс, мозг, мотивация, равенство.

Neyropedagogika — bu zamonaviy pedagogika va neyrofanlar kesishgan nuqtada shakllangan fan yo‘nalishi bo‘lib, inson miyasi qanday o‘rganishini, bilimlar qanday shakllanishini va hissiyotlar ta‘lim jarayoniga qanday ta‘sir qilishini o‘rganadi. Bu yondashuv ta‘limda individual farqlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Neyropedagogik yondashuv o‘qituvchiga o‘quvchilarning individual o‘rganish uslublarini aniqlab, ularning kuchli tomonlarini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, o‘g‘il bolalar uchun faol o‘yinlar, tajriba asosidagi mashg‘ulotlar samarali bo‘lsa, qizlar uchun muloqotga, ijodga yo‘naltirilgan topshiriqlar yaxshiroq natija beradi. Bunda asosiy maqsad jinslar o‘rtasida ustunlik emas, balki imkoniyat tengligini ta‘minlashdir.

Gender tafovutlari esa o‘quvchilarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ammo neyropedagogika bu farqlarni biologik determinatsiya sifatida emas, balki shaxsning tajribasi, ijtimoiy muhit va tarbiya bilan bog‘liq neyropsixologik hodisa sifatida izohlaydi. Neyropedagogika o‘z ildizlarini kognitiv psixologiya, nevrologiya va ta‘lim nazariyalaridan oladi. Vigotskiy, Bruner, Damasio va Hebb kabi olimlarning ishlari bu yo‘nalishning shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Vigotskiy ta‘limni sotsiokognitiv jarayon deb hisoblagan bo‘lsa, Damasio hissiyotlarning o‘rganishga bevosita ta‘sirini ta‘kidlagan.

Neyropedagogika shuni o‘rgatadiki, har bir inson miyasi o‘ziga xos tarzda rivojlanadi. Demak, o‘qitish jarayonida yagona uslub emas, balki moslashtirilgan, o‘quvchining neyroindividual xususiyatlariga mos metodlar qo‘llanishi kerak.

Sonia Reverter (2021) o‘z tadqiqotlarida ta‘lim tizimida o‘g‘il va qiz bolalarni ajratib o‘qitish masalasini tahlil qiladi. Uning fikricha, bunday ajratish neyropedagogik tamoyillarga zid, chunki har bir o‘quvchining miya faoliyati o‘ziga xos va o‘zgaruvchan. Neyrofanlar shuni ko‘rsatadiki, o‘rganishdagi farqlar ko‘proq muhit, tarbiya va ijtimoiy tajriba bilan bog‘liq. Cordelia Fine (2010) o‘z asarida “neurosexism” tushunchasini ilgari surgan — ya‘ni ilmiy natijalarni jins stereotiplarini oqlash vositasi sifatida ishlatish holatlari. Bu pedagogik qarorlarni noto‘g‘ri yo‘naltiradi. Lise Eliot (2009) esa shuni ko‘rsatadiki, kichik biologik tafovutlar ijtimoiy muhit ta‘sirida kattalashadi va o‘quv jarayoniga salbiy ta‘sir qiladi. Neyropedagogika ta‘limda teng imkoniyat yaratishni maqsad qiladi. O‘qituvchi o‘g‘il yoki qiz bola uchun alohida metod tanlashdan ko‘ra, ularning o‘ziga xos o‘rganish uslublarini aniqlashi zarur. Bu yondashuvda emotsional muhit, e‘tibor mexanizmlari va ijtimoiy o‘zaro ta‘sir muhim o‘rin tutadi.

Masalan, neyropedagogika asosida quyidagi tamoyillar qo‘llanilishi mumkin:

- Har bir o‘quvchining o‘rganish uslubini aniqlash va individual metod tanlash;
- Ijobiy emotsional muhit yaratish (dopamin va oksitotsin faoliyatini oshiruvchi omillar);
- Jins stereotiplarini kuchaytiruvchi emas, balki kamaytiruvchi topshiriqlar berish;
- Kognitiv faollikni rag‘batlantiruvchi o‘yinli yondashuvlarni joriy etish.

O‘qituvchilar uchun neyropedagogik amaliyotda quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. O‘quvchilarning diqqatini jalb etuvchi ko‘p sezgili faoliyatlardan foydalanish.
2. Qisqa muddatli dam olish (break) orqali miyani ortiqcha yuklanishdan himoya qilish.
3. Vizual va audial materiallarni muvozanatda qo‘llash.
4. Har bir o‘quvchining kuchli tomonlarini rivojlantirishga e‘tibor qaratish.
5. Stereotiplardan xoli muhit yaratish.

OECD tomonidan o‘tkazilgan PISA tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, 15 yoshli o‘quvchilar orasida qizlar o‘qish va matnni anglashda yuqori natija ko‘rsatgan bo‘lsa, o‘g‘il bolalar matematika va tabiiy fanlarda ustunlik qilgan. Biroq bu tafovutlar nafaqat bilim darajasida, balki o‘z-o‘zini baholash, ishonch va ijtimoiy stereotiplar bilan ham bog‘liqdir. Bundan tashqari, ta‘lim muassasalarida rahbarlik va ilmiy lavozimlarda gender nomutanosibligi ham saqlanib qolmoqda. UNESCO‘ning 2025-yilgi Global Gender Education Report ma‘lumotiga ko‘ra, maktabgacha ta‘lim tizimida rahbarlarning 81 % ayollar bo‘lsa, oliy ta‘lim muassasalarida bu ko‘rsatkich 30 %dan past. Bu esa ta‘limdagi ijtimoiy modellar va rol namunalari neyropsixologik ta‘sirini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Neyropedagogika nuqtayi nazaridan gender tafovutlarni o‘rganish quyidagi jihatlarni qamrab oladi:



✓ Neyrofiziologik farqlar — miyada axborot uzatish tezligi, gippokamp va amigdala faoliyatidagi jinsiy differensialliklar o’quv jarayonida kognitiv strategiyalarni farqlaydi.

✓ Motivatsion farqlar — o’g’il bolalarda raqobat, qizlarda esa ijtimoiy e’tirof asosidagi motivatsiya ustunlik qiladi.

✓ Emotsional va ijtimoiy o’rganish — qizlarda empatiya va hamkorlik asosidagi o’rganish kuchli, o’g’il bolalarda esa faol tajriba asosidagi idrok ustun.

✓ Stressga javob tizimi — neyropsixologik tadqiqotlarda o’g’il bolalar kognitiv stressga nisbatan tez reaktivlik ko’rsatishi aniqlangan, bu esa baholash tizimini individual qilishni talab etadi.

Shu sababli neyropedagogik yondashuvda gender tafovutlarni inobatga olgan o’qitish modeli — ya’ni “gender neyrobalsli ta’lim” — o’quvchilarni tabiiy neyrofiziologik imkoniyatlari asosida rivojlantirishga qaratilgan. Xalqaro tajriba shuni ko’rsatmoqdaki, ta’limda gender tafovutlarini kamaytirish faqat ijtimoiy siyosat masalasi emas, balki miya faoliyatiga asoslangan pedagogik innovatsiya jarayonidir. Neyropedagogika o’quvchilarning jinsga xos o’rganish uslublarini aniqlab, ularga mos motivatsion, hissiy va kognitiv yondashuvni taklif etadi.

Xulosa qilib aytganda, neyropedagogik yondashuvda gender tafovutlar biologik omil sifatida emas, balki ijtimoiy va psixonevrologik jarayonlarning natijasi sifatida qaraladi. Ta’limda neyropedagogika qo’llanilishi o’quvchilarni yaxshiroq tushunishga, stressni kamaytirishga va o’rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, o’qitish jarayonida individual neyrofaollikni inobatga olish, jinsdan qat’i nazar, har bir o’quvchining salohiyatini to’liq ochish imkonini beradi.

✓ Kelgusida ta’lim jarayonida gender tenglikni ta’minlash uchun:

✓ o’qituvchilarga neyropedagogik tayyorgarlik berish,

✓ o’quv dasturlarida jinsga sezgir o’qitish usullarini qo’llash,

✓ baholash tizimida kognitiv farqlarni hisobga olish,

✓ ijtimoiy stereotiplarni ilmiy asosda tahlil qilish zarur.

Demak, neyropedagogik yondashuv gender tafovutlarni ijobiy pedagogik resurs sifatida ko’rish imkonini beradi — bu orqali har bir o’quvchining individual neyropotensialni maksimal darajada rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reverter-Bañón, S. (2021). Together or Separate? Contributions from Neuroeducation to the Debate on Sex Segregation in Schools. Pensamiento Journal, Universidad Comillas.
2. Reverter-Bañón, S., & Medina-Vicent, M. (2018). Sex Differences in Neuroscience and Neuroeducation. Revista Crítica, UNAM.
3. Jamoldinova, S. N. (2024). O’qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati. TA’LIM VA TARAQQIYOT Ilmiy-uslubiy jurnal, 1(6), 44-50.
4. Jamoldinova, S. N. (2024). The role of the teacher’s professional competence in conflict situations. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 2(11), 15-18.
5. Jamoldinova, S. N. (2024). Bo’lajak o’qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va mohiyati. “Xalqaro tajribalar asosida kasbiy ta’lim muassasalarining yangi qiyofasini yaratish va kadrlar tayyorlashni sifat bosqichiga olib chiqishning muammo va yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(1), 526-529.

AKADEMIK LITSEYLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ismanova Marg’uba Numonovna

IIV Namangan akademik litseyi o’qituvchisi
marguba0103@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda litsey ta’limida raqamli texnologiyalarning pedagogik ahamiyati, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning o’quv jarayoniga ta’siri masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: raqamli texnologiyalar, litsey ta’limi, raqamli savodxonlik, interaktiv vositalar, pedagogik innovatsiyalar.